

Parametrli takrorlash operatori

- 1. Paskalda takrorlanuvchi dasturlar tuzishda qanday turdagi operatoridan foydalaniladi?**
Takrorlanuvchi dasturlar tuzish uchun takrorlash operatorlaridan foydalaniladi.
- 2. Paskalda parametrli takrorlash operatorining umumiy ko 'rinishi qanday?**
*Parametrli takrorlash operatorining umumiy ko'rinishi **For I:=N1 To N2 Do <takrorlanish tanasi>;***
- 3. For I:=N1 To N2 Do <takrorlanish tanasi>; da N1 va N2 o'zaro qanday munosabatda? N1<N2 (N1 kichik N2 dan).**
- 4. Takrorlanish tanasini operatorlar ketma-ketligi tashkil etgan bo 'lsa, u qanday holda yozilishi kerak?**
*Ular albatta **begin** ko'rsatmasi bilan boshlanib, **end;** ko'rsatmasi bilan tugallanadi.*
- 5. For I:=N1 To N2 Do <takrorlanish tanasi>; ko 'rinishidagi takrorlash operatori qanday ishlaydi?**
U quyidagicha ishlaydi: 1. Avval takrorlash parametri boshlang'ich qiymatni qabul qiladi; 2. Agar takrorlash parametrining qiymati oxirgi qiymatdan katta bo'lmasa, takrorlash tanasini tashkil etuvchi operatorlar bajariladi aks holda takrorlanish to'xtatiladi va boshqarish navbatdagi operatorga uzatiladi; 3. Takrorlash parametrining qiymati bittaga ortadi (unga 1 qo'shiladi) va 2-bandga o'tiladi.
- 6. For I: =N1 To N2 Do <takrorlanish tanasi>; operatorda N1<N2 shart bajarilmasa, dastur qanday natija chiqaradi?**
Agar bu shart bajarilmasa dastur xatolik haqida xabar beradi.
- 7. For I:=N1 Downto N2 Do <takrorlanish tanasi>; da N1 va N2 o'zaro qanday munosabatda? N1>N2 (N1 katta N2 dan).**
- 8. For I:~N1 Downto N2 Do <takrorlanish tanasi>; operatorda N1>N2 shart bajarilmasa, dastur qanday natija chiqaradi? Agar bu shart bajarilmasa dastur xatolik haqida xabar beradi.**